

AMARANT O‘SIMLIGINI ZARARKUNANDALAR BILAN ZARARLANISHI

Saidganiyeva Shahodatxon Talatbek qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada amarant o‘simligini turli zararkunandalar bilan zararlanishi va lavlagi shirasi bilan zararlanishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar : Amarant, entomofauna, lavlagi shirasi, o‘simlik barglari, qarshi kurash.

Abstract: This article providec information on how to treat amaranth plants with damage pests and beet aphid

Keywords: Amaranth, entomofauna, beet aphid, plant leaves, measure.

Amarant o‘simligi amarantdoshlar oilasiga kiruvchi o‘simlik bo‘lib, xalq tilida biz ushbu o‘simlikni gultojixo‘roz deb ataymiz. Ushbu o‘simlikning kelib chiqish vatani Janubiy Amerika bo‘lib, uni bu yerda 8000 yildan beri urug‘i uchun o‘stiriladi. Ikkilamchi vatani esa Xitoy xamda Xindiston xisoblanadi. Ushbu o‘simlikni yetishtirishga oid tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘simlikni yetishtirish fermerlar uchun yuqori daromad manbai bo‘lishidan tashqari, chorvachilik, parrandachilik, oziq-ovqat, farmatsevtika va kosmetika sanoatida xam keng miqyosda foydalanish mumkinligi ko‘rsatdi. Barcha qishloq xo‘jaligi o‘simliklar singari amarant o‘simligi ham turli zararkunanda va hashoratlar bilan zararlanadi. O‘tgan yilgi ilmiy tadqiqotlarimiz davomida amarant o‘simligiga chirildoqlar, chigirtkalar, lavlagi shirasi, lavlagi biti va lavlagi uzunburuni bilan zararlangani aniqladik.

Amarant o‘simligini mart oyidan to iyun oyigacha yetishtirish davomida ushbu o‘simlikda entomofaunasini ular orasidan zararli va foydali turlari tarqalganligiga guvoh bo‘ldik. Dastlab amarant o‘simligini ekkan davrimizdan to 3-4 chinbarg chiqargungacha bo‘lagan davrda 1 m² joyda 5-6 ta *Pyrrhocoris apterus* qandalasini

uchratdik. O‘simligimiz bo‘yi 10-15 sm bo‘lgandan so‘ng ushbu hashoratlarni deyarli tajriba maydonlarida uchratmadik. Amarant o‘simligini 3-4 chinbarg chiqarishi bilan esa kemiruvchi zararkunandalar bilan zararlanganiga guvoh bo‘ldik. Tajriba maydonimizda chirildoqlar va lavlagi uzunburunini uchratdik va bu zararkunandalar amarant o‘simligiga jiddiy zarar keltirayotganligini kuzatdik. May oyidan boshlab esa amarant o‘simligi lavlagi shirasi bilan zararlanishi qayd etildi

Lavlagi shira amarantga 8-10 ta juft barg hosil bo‘lganda zararlashni boshlaydi. Bu, qoida tariqasida, issiq mintaqalarda, shuningdek issiq va quruq mavsumda sodir bo‘ladi.

Hasharotlar o‘simlik barglariga o‘suv nuqtasi va novdalar poyasiga zarar yetkazadi. Amarantning ko‘proq yem -xashak va donli navlari zarar ko‘radi. Aphid koloniyalari asosiy yoki lateral kurtaklarning yuqori qismida to‘planadi, ular zararkunandalarning ko‘pligi bilan deformatsiyalanadi va quriydi. Zararlangan o‘simliklarning urug ' hosildorligi pasayadi, yo‘qotishlar 35%ni tashkil qiladi. Shira yem -xashak navlarida ko‘payganda, hosil yo‘qotilishi 55% ga etadi.

Shira barcha turlari amarantda xuddi shunday harakat qiladi. Ular barg va poyadan o‘simlik shirasini so‘rib oladi, buning natijasida barglar markaziy tomir bo‘ylab o‘simlik shirasini so‘rishi natijasida o‘simlik poyalari zaiflashadi, mustahkamligi va elastikligini yo‘qoladi va quriydi.

Shira ommaviy ko‘payishiga may va iyun oylarida, erta va namli bahor yuz beradi. Shira barcha navlari sovuqni yoqtirmaydi, shuning uchun kuzgi kam uchraydi. Sovuq davrda ekilgan ertangi amarant navlariga shiralalar bilan kamroq zararlanadi. Amarantdagi shiralarga qarshi kurashishda



A

B



S

D

1-rasm. Amarant o‘simligi. A-B-Amarant o‘simligining O‘zbekiston M navini lavlagi shirasi bilan zararlangan barglari, S-D - Amarant o‘simliging Andijon navini lavlagi shirasi bilan zararlangan bargi va o‘suv nuqtasi.

Shira uchun erta kurash choralari zararkunandalarning ko‘payish joyi bo‘lib xizmat qila oladigan, amarant o‘simligiga yaqin joylashgan o‘simliklarni olib tashlash orqali kamaytiriladi. Agar shira amarantga zararlanishni boshlagan bo‘lsa oltinko‘z entomofagini qo‘llash yoki Biovert biologik preparatini shiralarga qarshi qo‘llashimiz mumkin. Ekish oldidan Gaupsin eritmasi bilan 4 l / ga, profilaktika maqsadida - 2 l / ga dorilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Ergashev “Amarant — XXI asr kashfiyoti “ Xalq so‘zi 10.07.2017 y
2. Natsionalnaya akademiya nauk. Amarant: sovremennye perspektivy drevney kultury . Vashington, okrug Kolumbiya: Natsionalnaya akademiya nauk; 1984 g.
3. O‘. Ahmedov va boshqalar. “Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya”. Tafakkur bostoni nashriyoti T. – 2017 y 45 bet.
4. Saidganiyeva SH.T., Tufliyev N.X Amarant o‘simligining biologik xususiyatlari va xalq xo‘jaligidagi ahamiyati Agrar fani habarnomasi 1(85)2021 yil
5. Saidganieva, S. T. Q. (2021). Andijon viloyati sharoitida dorivor amarant o‘simligini yetishtirish texnologiyasi. Science and Education, 2(5), 111-115.
6. Саидганиева Ш.Т., Түфлиев Н.Х “Виды основных вредителей растения амарант и степень их встречаемости” международная научно-практическая конференция по теме “Инновационные технологии защиты растений в продуктовой безопасности” 2021 год (2) с 240.

7. Nodirbek, T., & Kizi, S. S. T. (2021). CULTIVATION OF THE MEDICINAL PLANT AMARANTH AND ITS ENTOMOFAUNA. *Universum: химия и биология*, (11-2 (89)), 70-73.

8. Saidganieva, S. T. Q., & Yuldasheva, S. N. Q. (2020). Measures against the damage of the insects of the nightshades family in the Soybean plant. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(8), 28-30.

